

# Andijon davlat tibbiyot instituti ftiziatriya kafedrası



**Kafedra mudiri:** tibbiyot fanlari  
nomzodi, dotsent,

**XAKIMOVA RO`ZIXON  
ABDURAXIMOVNA**

**Qabul vaqti:** Dushanba-Juma (14:00-16:00gacha)

**Tel:** +99893-540-42-66

**e-mail:** [ruzaxon@umail.uz](mailto:ruzaxon@umail.uz)

## **FTIZIATRIYA KAFEDRASİ TARİXİ VA FAOLİYATI**

Kafedra 1964-yilda ftiziatriya kursi sifatida tashkil etilgan. 1977-yilda Qurbonali Boltaboevning sa'yi harakatlari evaziga ftiziatriya kafedrasiga asos solingan. Kafedra assistentlari lavozimida t.f.n. R.Y. Ibragimova, O.M.Musaev, t.f.n., K.G'.G'ofurov, T.T.Teshaboev, A.N.Nishonov, M.M.Yusupov va t.f.n.,A.A.Ablyazovlar ishlashgan. So'ng esa kafedraga istiqbolli o'qituvchilar qo'shildi. Ular - tibbiyot fanlari nomzodi V.R.Po'latov, Sh.D.Payziev, V.V.Muratov hamda M.E.Pervensev, V.M.Kostirina, Z.N.Makaseeva, I.P.Poluektovalardir.

Kafedraning ilmiy yo'nalishi «Andijon viloyatida birlamchi va ikkilamchi doriga turg'unligini aniqlash»ni o'rganish edi. Qurbonali Boltaboev va R.Yu.Ibragimovalar shu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib bordilar. Farg'ona vodiysida yagona bo'lgan, kafedrada ilk bor ilmiy-klinik laboratoriya tashkil qilingan. Unda oziq-muhitlarda mikobakteriyalarni o'stirib, ikkilamchi doriga turg'unlik hamda zambrug'lar aniqlangan.

1980-1981 o'quv yilida viloyat bolalar silga qarshi kurash shifoxonasida pediatriya fakulteti talabalari uchun "Bolalar sil kasalligi" kursi tuzildi va unga dotsent R.Yu.Ibragimova rahbarlik qildi. Yangi ochilgan kursda dotsent

SH.D.Payziev, assistentlardan L.B.Shvars, T.G.Novak va R.X.G'ofurovalar ish boshlashdi.


1984-1989 yillarda kafedraning bir qator xodimlari - R.A.Xakimova (1985), Sh.B.Oxunov (1986), V.V. Dadaboev (1987), A.A.Abdullaev (1988), M.M.YUsupova (1989) Moskva shahrida maqsadli aspiranturani muvaffaqiyatli tamomlab, nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab qaytdilar.

A.Boltaboev kafedraga rahbarlik qilgan yillari, jamoada o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy, davolash, otaliq ishlarini namunali olib borish bilan birga, bir qancha ilmiy maqola va o'nlab ratsionalizatorlik takliflari, ko'plab o'quv-uslubiy qo'llanmalar chop etildi. Professor A.Boltaboev institut miqyosida ham mas'uliyatli lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi: davolash fakultetining dekani va sobiq partiya tashkilotining kotibi vazifalarini sidqidildan ado etdi. 1992-yildan nafaqaga chiqqan.

1992-yildan 2000-yilgacha kafedraga tajribali mutaxassis t.f.n., dotsent Sh.B. Oxunov mudirlik qildi. U etuk olim, mohir pedagog sifatida faoliyat ko'rsatdi. Shu davr ichida kafedrada xodimlar tomonidan bir nechta ilmiy ishlarini yakunlashgan. Bu davrda kafedraning ilmiy yo'nalishi tuberkulezda rivojlangan ikkilamchi turg'unlik, nogironlik, jarrohlik yo'nalishida o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan edi.

Kafedrada bir nechta nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Jumladan: R.D.Payziev doktorlik dissertatsiyasini, R.A.Xakimova V.V.Dadaboev, M.M.Yusupova va yana boshqalar nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli yoqladilar.

2001-2004 yillari kafedraga t.f.d., dotsent R.D.Payziev mudir etib tayinlandi. R.D.Payziev Andijon shahar silga qarshi kurash dispanseri bosh vrachi lavozimida faoliyatini davom ettirishi munosabati bilan kafedraga 2004 yildan boshlab t.f.n., dotsent A.A.Abdullaev mudir etib tayinlangan.



2005-yildan boshlab hozirgi kungacha kafedrani t.f.n., dotsent R.A.Xakimova boshqarmoqda. R.A.Xakimova kafedrani namunali olib borish bilan birga, bir qancha ilmiy maqola va o'nlab ratsionalizatorlik takliflari, ko'plab o'quv-uslubiy qo'llanmalar chop etildi. 2009-2011 yillarda kafedra dotsenti R.A.Xakimova ilmiy rahbar va kafedra assistenti J.X.Xalilov ilmiy izlnuvchi sifatida davlat grantini bajarishdi, «Diagnostika i differensialnaya diagnostika tuberkuleza u VICH infitsirovannix. Organizatsiya i provedenie antiretrovirusnoy terapii u VICH infitsirovannix bolnix tuberkulezom v Andijanskoy oblasti», 2009- 2011 yillarda amaliy davlat granti ITSS-28 (jami 71 mln so'mli) bajarildi.



### Kafedra tarkibi:

<b>№</b>	<b>FISH</b>	<b>Lavozimi</b>
<b>1</b>	<b>Xakimova R.A</b>	<i>Kurs mudiri T.f.n dotsent</i>
<b>2</b>	<b>Maksumova D.K</b>	<i>Katta o'qituvchi</i>
<b>3</b>	<b>Oripov SH.YU.</b>	<i>Assistent</i>
<b>4</b>	<b>Botirova B.T</b>	<i>Assistent</i>
<b>5</b>	<b>Xudayberdieva M.J.</b>	<i>Assistent</i>
<b>6</b>	<b>Akbarova SH.E.</b>	<i>Assistent</i>
<b>7</b>	<b>Baydullaev K.A.</b>	<i>Assistent</i>
<b>8</b>	<b>Sultonov G'.A.</b>	<i>Kabinet mudiri</i>

Keyingi yillarda o'quv jarayoni zamonaviy texnik vositalari (slydoskop, kodoskop, kompyuter, negetaskop, videomagnitofon, televizor, DVD va b.) bilan ta'minlandi. O'qitish jarayoniga interaktiv o'qitish usullari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash kiritilib jahon andozalariga mos holda olib borilmoqda. Amaliy mashg'ulotlar va ma'ruzalar zamonaviy adabiyotlar va internet ma'lumotlari bilan boyitilgan holda ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallardan foydalanib multimedialarda namoyish qilib olib borilmoqda.

Kafedrada davolash fakulteti 4-6 - kurs talabalari, pediatriya fakultetini 5-7 kurs talabalari, o'nlab klinik ordinatorlar uchun o'quv jarayoni tashkil etilgan. O'quv jarayoni zamonaviy texnik vositalar bilan to'ldirilgan. Yangi pedagogik texnologiyalar, internet va yangi adabiyotlar ma'lumotlaridan foydalanib ma'ruzalar o'qish va amaliy mashg'ulotlarni olib borish takomillashtirilgan. So'nggi besh yil davomida kafedrada o'quv uslubiy ishlar yanada yuqori darajaga ko'tarildi. Interfaol o'qitish usullari kiritildi.

Kafedrada muntazam ravishda talabalar o'rtasida va kafedralar aro klinik anjumanlar o'tkazilib turiladi. Kafedra xodimlari tuman markaziy poliklinikalaridagi ftiziatrlarga, umumiy amaliyot shifokorlariga mahorat darslarini olib boishadi, hamda turli o'quv yurtlarida tuberkulyoz profilaktikasi to'g'risida ma'ruzalar, , davra suhbatlari o'tkazib kelmoqda.

## Kafedrada o'quv jarayonidan lavhalar



### **Kafedrada ma'naviy va ma'rifiy ishlar yuqori saviyada olib borilmoqda**

Har bir talabalar guruxlari ma'naviyat va ma'rifat xonasi bilan tanishtirilib, milliy istiqlol g'oyasi targ'ib etilib. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik odimlari, davlatimiz ramzlari - O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi haqida suhbatlar o'tkazilmoqda.

Yoshlar orasida qonunbuzarlikka, giyohvandlikka qarshi kurash, Markaziy Osiyoda narkobiznes muammosi haqida davra suhbatlari o'tkazilmoqda.





Kafedra Andijon Viloyat silga qarshi kurashish dispanserida joylashgan. Manzil: Asaka tumani Fayziobod QFY, Yangi sor MFY 115 uy. Kafedrani umumiy joylashish maydoni 218 m<sup>2</sup> dan iborat bulib, talab darajasida jihozlangan 4 ta o‘quv xonalari, ordinatorlar xonasi – 15 m<sup>2</sup>, ma’naviyat xonasi mavjud. Oxirgi ta’mir muddati – 2016-yil.

### **Kafedra ilmiy ishlaridan na’munalar**

#### **O‘quv qo‘llanmalar**

- Dotsent Xakimova R.A., Aliev X.A. «Interaktivnie metodi obucheniya ftiziatirii» 12.06.2008y da o‘quv yurtlari va kadrlar bosh boshqarmasi boshligi tomonidan tasdiqlangan.
- Dotsent R.A.Xakimova Osnovnie rekomendatsii po vedeniyu bolnix limfadenopatiey v usloviyax pervichnogo zvena meditsinskoy pomoshi 2010
- Dotsent R.A.Xakimova Atlas rengenodiagnostiki i differensialnoy diagnostiki pervichnogo tuberkuleza, 2012
- Dotsent R.A.Xakimova ”Rukovodstvo po ftiziatirii poshagovogo vipolneniya prakticheskix navikov” 2013
- Dotsent R.A.Xakimova:”Practical training of tuberculosis step by step” 2013

#### **O‘quv- uslubiy qo‘llanmalar :**

- Diagnostika, differensialnaya diagnostika i lechenie plevrita tuberkuleznoy etiologii u detey, po strategii voz "ostanovit tuberkulez" 2009
- Jaxon sog'liqni saqlash tashkilotining "SILNI TO'XTATISH" strategiyasi bo'yicha bolalarda sil plevritini tashxisoti, qiyosiy tashxisoti va davolanishi 2009
- Sil kasalligi tashxisotini yangi usullari, shu jumladan OIV bilan zararlangan bemorlarda, 2009
- «Bolalar va osmirlarda o'pka silini patogenetik terapiyasi» 2009
- Sitomegalovirusnaya infeksiya - klinika, diagnostika, lechenie i differensialnaya diagnostika s tuberkulezom organov dixaniya u vich-infitsirovannix, 2010
- Sitomegalovirusli infeksiya - klinikasi, diagnostikasi OIV bilan zararlanganlarda o'pka sili bilan qiyosiy tashxisoti, 2012

#### **Ratsionalizatorlik taklif va amaliyotga tadbiiq etilgan ishlar**

- R.A.Xakimova, E.S.Perevezenseva, D.K.Maksumova Primenenie flukanozola dlya profilaktiki kandidoza u bolnix tuberkulezom, VICH- infitsirovannix, v sochetanii so stomatitom, 2012
- R.A.Xakimova, Z.K. Xakimova, M.A.Zulunov Primenenie sinariksa dlya preduprejdeniya pobochnogo deystviya protivotuberkuleznix preparatov, bolnix s soputstvuyushey ptologiey pecheni, 2012
- R.A.Xakimova, J.X.Xalilov, A.Xasanov, M. Xojiev Primenenie sinariksa dlya preduprejdeniya pobochnogo deystviya protivotuberkuleznix preparatov, u VICH- infitsirovannix detey s gepatomegaliey, 2012
- .D.K.Maksumova "Kislota- pepsik agressiv faktorni OITS fonida kechayotgan oshqozon- ichak tizimi kasalliklariga chalingan aholi o'rtasida tarqalishi" 2012
- R.A.Xakimova, D.K.Maksumova, Botirova B.T, Xudayberdieva M.J.Doriga chidamli tuberkulyoz o'chog'ida fitoyig'indi va termogrunoterapiyani qo'llash bilan bolalar immunitetini ko'tarish, 2017

#### **Chop etilgan tezislar va jurnal maqolalar:**

- Periferik limfa tugunlari silining qiyosiy tashxisoti va davolash muammolari- Byulleten assotsiatsii vrachey Uzbekistana, 2008y, №3, 73-75
- Problemi diagnostiki tuberkuleza sredi VICH- infitsirovannix - Limfologiya, 2012, 1-2, s.52-54
- OIV bilan zararlanganlarda balg'am surtmasi manfiy bo'lgan xolatlarda o'pka tuberkulezini diagnostika usullarini mukammallashtirish- Infeksiya, immunitet i faprmakologiya, Toshkent, 2014,№ 2,s. 89-92
- Destruktiv o'pka tuberkulezini kompleks davolashda immunomodulyatorlarni qo'llash- Tibbiyotda yangi kun, 2014, № 1 (5), s.32-34
- Chastota pobochnix reaksiy preparatov u bolnix multirezistentnim tuberkulyozom i puti ix preodolenie, VI Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konfirensiya, Ulan Ude 2017